

## INSON KAPITALI BILAN BOG‘LIQ TUSHUNCHALARNING NAZARIY TAHLILI

*O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakul‘teti*

*“Sotsiologiya” kafedrası*

*Tayanch doktoranti (PhD)*

**A'zamxonov Saidabzalxon Xasanboy o'g'li**

**Annotatsiya:** *V danной статье изучены понятия происхождения связанный с «человеческим капиталом», действительность и содержание. В данном исследовании проведен анализ теоретических концепций с помощью сравнительным анализом, интегрированием, анализом и синтезом. Кроме того выражен автором точка зрения критерии использования понятия связанные с человеческим капиталом, в зависимости от точки зрения государства, общество и субъекты хозяйствования, и пришли к выводу наличие прямой связи среди понятий связанных с человеческим капиталом.*

**Annotatsiya:** *This article analyzed concepts related to "human capital", its origin, actuality and content. This research analyzed the use of comparative analysis, integration, analysis and synthesis. In addition the author gave suggestion over concept of using criteria related to human capital, depending on the state, society and business entities, and gave conclusion concerning direct link among concepts related to human capital.*

**Kalit so‘zlar:** *ishchi kuchi, mehnat resursi, mehnat potentsiali, inson resurslari, inson omili, inson kapitali.*

Har qanday iqtisodiy tizim o‘ziga xos iqtisodiy qonunlar va shunga mos iqtisodiy kategoriyalarga ega bo‘ladi. Bu iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar ma‘lum bir makon va zamonda amal qiladi. Insoniyat paydo bo‘libdiki, to hozirgi kunga qadar insonni iqtisodiy jarayonlarga ta‘sirini turli darajalarda baholanib shunga xos iqtisodiy tushuncha va kategoriyalar ishlab chiqilgan. XVIII-asrda insonni ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatida qarab uni ishchi kuchi, mehnat resurslari deb e‘tirof etganlar va shu asosda iqtisodiyotda ishchi kuchi, mehnat resurslari kategoriyasi paydo bo‘lgan. Bugungi kunga kelib insonni iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir etish ko‘lami kengayib bordi. Fan texnikaning jadal rivojlanishi bilimlar, ko‘nikmalar, mahorat inson qobiliyatlarini birinchi o‘ringa ko‘tardi. Bevosita inson iqtisodiyotni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Inson endi ishlab chiqarishning qo‘shimcha resursi emas, balki o‘z qobiliyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, yangi innovatsiyalarni yaratuvchi noyob resursga aylandi. Inson xodim sifatida o‘z mehnatining natijasini taqsimlashda, mulkda, foydada ishtirok etish tizimi orqali

korxonalarni boshqarishda ishtirok eta boshladi. Bu esa iqtisodiyotda inson kapitali tushunchasini paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy sharoitda inson kapitali tushunchani mohiyatini tushunish uchun u bilan bog'liq ishchi kuchi, mehnat resursi, mehnat potentsiali, inson resurslari, inson omili, tushunchalarni mazmunini nazariy tahlil qilish ushbu maqolani asosiy maqsadi etib belgilandi.

Hozirgi kunga qadar ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati borasida bahslar, tortishuvlar davom etmoqda. Biroq, bu bir-biri bilan bog'liq tushunchalar iqtisodiyot fanning tayanch kategoriyalari bo'lsada, bu esa bular o'rtasidagi mavjud farqli tomonlarni aniqlashni taqozo qiladi.

Yana bir muhim jihat. Yuqorida keltirilgan iqtisodiy tushunchalar hozir ham o'zining muhim ahamiyatini yo'qotgan emas, balki zamonaviy iqtisodiyotda ularning nomlanishi ham yangicha talqinni talab qilmoqda.

Hozirgi paytda inson kapitali va u bilan bog'liq tushunchalarning nazariy masalalari qo'yidagi xorijiy olimlar V.V.Adamchuk, G.Boryagin, V.A.Galkina, B.M.Genkin, M.M.Xaykin, A.Ya.Kibanova, Rofe A.I, Tis S. N, Bekker G.S, Kapelyushnikov R.I, Gruzkov I.V., Gruzkov V.N, Koriskiy A. V va mamlakatimiz olimlaridan Abduraxmonov Q.X, O'lmasov A, Vahobov A, Saidov M, Bakiyeva I.A, M.Q.Pardayev, Abdukarimov B.A, K.Saidov, M.Muxammedov, D.Aslanova, R.Seytmuradov, S.Isxakovalarning adabiyotlari yoritilgan.

Masalaning nazariy, huquqiy va amaliy jihatidan kelib chiqib, yuqorida keltirilgan iqtisodiy tushunchalarni qisqacha tahlil qilishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Birinchi galda ishchi kuchi tushunchasi to'g'risida. Ishchi kuchi atamasiga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak ishchi kuchi har qanday jamiyatda ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib hisoblangan. U orqali inson tabiat ne'matlarini tayyor iste'mol qiladigan holiga keltiradi. Tovar-pul munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan ishchi kuchi ham tovarga aylandi. Bu kishilik jamiyati taraqqiyotining kapitalistik tizim bosqichida kelib yaqqol namoyon bo'ldi, chunki bu davrda kelib kishilar, birinchidan, shaxs sifatida o'z erkinliklarini ta'minlab, o'z ish kuchlariga egalik qiladigan bo'ldi. Biroq juda ko'p iqtisodiy adabiyotlarda ishchi kuchi va mehnat tushunchalarini sinonim tushunchalar deb aytib o'tishadi. Bizga ma'lumki, mehnat bu kishilarning ongli, ma'lum bir maqsadga qaratilgan jarayonidir. Ishchi kuchi esa shu mehnat jarayonida o'zining aqliy va jismoniy qobiliyatlari bilan qatnashadigan insondir.

Fikrimizcha bu ikki iqtisodiy tushuncha umuman ma'no jihatidan boshqa-boshqa mazmunga ega. Mehnat jarayoni o'z ichiga mehnat predmeti, mehnat vositalari va ishchi kuchini bo'lishini taqozo qiladi. Mehnatning eng muhim omili ishchi kuchi lekin mehnatning o'zi ishchi kuchi bo'la olmaydi. Ishchi kuchi tushunchasi hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib aniq yosh yoki boshqa bir mezonlar bilan aniq belgilab berilmagan. Demak, ishchi kuchi tor ma'noda olib qaraydigan bo'lsak biror-bir korxonada xodimlari, ularning soni

tushunilsa keng ma'noda mehnat qilish qobiliyati va huquqiga ega bo'lgan va o'z qobiliyati bilan biror-bir iste'mol qiymati ishlab chiqargan mamlakatning jami aholisi tushunishimiz mumkin.

Uchinchi muhim tushuncha bu mehnat resursidir. Bu tushunchani paydo bo'lishini ayrim adabiyotlarda sho'rolar davridagi iqtisodiyotni markazlashgan usulda boshqarishdagi siyosiy jarayonlar bilan bog'laydi. Boshqa bir rus iqtisodchilar ushbu tushunchani fanga kirib kelishini akademik olim S.G. Strumilin bilan bog'liqligini ta'kidlashadi[1].

Ushbu tushuncha borasida rus olimi M.M.Xaykin, ma'lum hududda yashovchi ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanuvchi zarur bo'lgan bilim, aqliy qobiliyat, jismoniy rivojlanishga ega aholi qismi mamlakatning mehnat resursini tashkil etadi"- deb aytgan [2]. Bu borada taniqli iqtisodchi olim Pardayev M.Q, mehnat resurslari – mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi (ayollar 16-55 yoshda, erkaklar 16-60 yoshda) sonida o'z ifodasini topadi. Bu yoshdagi nogironlik va boshqa sabablar bilan ishlamaydiganlar mehnat resursiga kirmaydi. Demak, mehnat resursi deganda aholining ma'lum chegaralangan yoshdagi ishlay oladigan faol qismi tushuniladi degan [3].

Bundan tashqari ushbu atamaga A.O'lmasov, A.Vahobovlar ham shunga o'xshash fikrlarni keltirgan, ya'ni "ishlash qobiliyati hammaga ham bo'lavermaydi, shu sababli aholi tarkibidan mehnat resurslari ajratib olinadiki, bu mehnatga layoqatli kishilardan iborat bo'ladi. Mehnat resurslari mehnat yoshiga kirgan, lekin hali pensiya yoshiga yetmagan ishchilardir[4].

Mamlakatimizda mustaqillik yillari bu tushuncha tarkibida o'zgarishlar bo'ldi. Respublikamiz xalqaro mehnat tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o'tgan bo'lib, unga ko'ra mamlakat mehnat resurslari ikki qismga ya'ni, iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol qismlarga ajratildi. Unga ko'ra iqtisodiy faol aholi jami ish bilan bandlar va ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslarni qamrab oladi. Iqtisodiy nafaol aholi o'qiydiganlar, mehnat bilan band bo'lmaganlar va uchinchi guruh nogironlari kiritilgan. Mazkur iqtisodiy atamalar bo'yicha iqtisodchi olim Q.Abdurahmonov o'zining "Mehnat iqtisodiyoti" darsligida juda mukkamal ta'rifni bergan. Ya'ni, mehnat resurslari - mamlakat aholisining o'z ruhiy fiziologik va aqliy sifatleri bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli qismidir. Ular tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholini emas, shu bilan birga hozirgi paytda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar, shu jumladan ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotganlar ham kiritiladi"[5].

Keltirilgan ta'riflar shuni anglatayaptiki mehnat resurslari tushunchasini makro daraja olib qarasa ishchi kuchi tushunchasiga nisbatan ancha kengroq bo'lib, undan farqli tarzda ma'lum bir mezon ya'ni insonni yoshi bilan chegaralangan.

To'rtinchidan, mehnat potentsiali to'g'risida ham ayrim fikrlarga oydinlik kiritish lozim. Q.X.Abdurahmonov o'zining "Mehnat iqtisodiyoti" darsligida Rossiyalik iqtisodchilar V.G.Kostakov, G.G.Sergeyeva, L.S.Chijovalarning bergan ta'rifini



keltirgan, ya'ni mehnat potentsiali – bu jamiyat egalik qilgan mehnat resurslaridir, deydilar. Ularning fikricha, mehnatga layoqatli aholining soni va uning sifat tomonlari (jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, malakasi va boshqalar) birgalikda, ko'rish mehnat potentsialini real mazmunini ifodalaydi[5].

Mehnat munosabatlari bilan bog'liq tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlarning aksariyati mehnat potentsialini mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, jami ishchi kuchi tushunchalari bilan ifodalashgan. Fikrimizcha mehnat potentsiali nafaqat mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi, jami ishchi ko'chi, ishlayotgan aholi balki, ushbu tushunchalar tarkibiga kirmaydigan bog'cha, maktab, leseylarda ta'lim tarbiya olayotgan barkamol avlodni ham mamlakatning mehnat potentsiali deyishimiz mumkin. Demak, mehnat potentsiali hali foydalanilmagan mehnat imkoniyati ham bo'lishi mumkin ekan. Mehnat potentsiali tushunchasi juda keng ma'noli bo'lib, bu tushunchani yakka insonga, guruhga, korxonaga mamlakatga nisbatan ham ishlatishimiz mumkin.

Beshinchidan, inson resursi tushunchasi ham iqtisodiy adabiyotlarda ko'plab uchraganligini inobatga olib uning ham mazmuniga qisqacha to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu tushunchani paydo bo'lishi borasida ham harxil qarashlar mavjud. Masalan, ushbu tushunchani xorijlik iqtisodchilar Makkonel K.R., Bryu S.L., Sink D.S., Xeyne P., Fisher S., Dornbush R., R Shmalenzilar o'zlarining tadqiqotlarida inson resurslari tushunchasini iqtisodiy kategoriya sifatida ishlatishgan. Ular ta'kidlashicha ishlab chiqarish jarayonida boshqa iqtisodiy resurslar kabi inson resurslari ham muhim ahamiyatga ega [6].

Mahalliy olimlarimizdan N.R. Narziqulov, O.H. Muhammedova, I.A. Baqoyevalar XX asrning oxirilarida yirik korxonalar kadrlarga extiyoj seza boshlagani va kadrlar tayyorlashni rejalashtirish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini izlab topish harakati kuchaygani bilan bog'liq xolatlar yuzaga kelganligi bu tushunchani paydo bo'lishiga sabab bo'ldi degan fikrlarni aytishgan [7].

Bu borada olim Q.X.Abdurahmonov ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif bergan. Inson resurslari - mamlakat aholisining foydali faoliyat yuritish uchun zurrur bo'lgan jismoniy rivojlanish, aqliy qobiliyatlar va bilimga ega bo'lgan qismi tushuniladi[5].

Bundan tashqari I.A.Bakiyeva bu tushunchaga ancha kengroq ta'rif bergan. Inson resurslari – bu odamlar, ularning mehnat axloqi va quyilgan maqsadga erishish uchun intilishi, ularning bilimlari va qadryatlar tizimi, ijodiy va novatorlik qobiliyatlaridir.- degan ta'rifni bergan[8].

Agar e'tibor bersangiz ushbu tushunchaga o'xshash tushuncha ya'ni mehnat resurslari tushunchasini yuqorida ma'no mazmunini tahlil qilgandik. Iqtisodchi olimlar mehnat resurslari ham ya'ni mehnat jarayonida qatnashadigan eng muhim resurs deb ta'kidlagan edilar. Bu ikkita iqtisodiy atamani mehnat va inson tushunchalari ajratadi xolos, umumiy ma'noda olib qarasangiz ikkalasi ham insonni ishlab chiqarishdagi eng muhim resurs sifatida ifodalaydi. Demak ushbu tushunchalar o'zaro bir-biriga yaqin ma'noni anglatgan sinonim tushunchalar desak

xato bo'lmaydi. Yana bir muhim jihat. Rivojlangan mamlakatlarda mehnat resurslari degan tushuncha emas balki inson resurslari tushunchasi ko'proq ishlatiladi. Mehnat resurslari tushunchasi oldingi sobiq ittifoq tarkibidagi mamlakatlarda saqlanib qolgan.

Yettinchidan, har qanday demokratik davlatning rivojlanishidan asosiy maqsadi – inson va uning kamologiga qaratilgan. Insonlarga davlat va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining quroli sifatida emas, balki bosh maqsadi deb qarash lozim. Ana shunday qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi ijtimoiy, iqtisodiy fanlarda inson omili degan atamani paydo bo'lishiga olib keldi. Falsafiy nuqtai nazardan bu tushunchani mazmuni shundan iboratki inson borliqdagi barcha narsaga ta'sir etishi va uning harakatga keltiruvchi eng muhim kuch sifatida qaraydi.

Bu yerda inson endi resurs emas balki, eng muhim mavjudod sifatida qadrlanadi. Bu tushuncha borasida Q.X. Abdurahmonov inson omilini iqtisodiy-siyosiy atama, mehnat psixologiyasi, ergonomika va sosiologiya tizimlarining zamonaviy umumiy nazariyasini manfaatlari predmetidir deb aytgan. Inson omili bu faqat jamoa xodimi emas, balki ijtimoiy hayotning jamoa sub'yektidir, u ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga ega bo'lib, uning elementlarining o'zaro xarakati jamiyat rivojlanishini ta'minlaydi [5].

N.R. Narziqulov, O.H. Muhammedova, I.A. Baqoyevalar inson omili – korxonalar, tashkilot, uyushmalarda hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan insonlardir, tarkibiy tuzilishi birinchi navbatda shaxs, ishchi va mehnat jamoasi, deb ta'kidlaganlar[7].

I.A. Bakiyeva esa inson omili – iqtisodiy tushuncha sifatida inson omili insonning barcha xususiyatlari va inson faoliyati barcha turlarining iqtisodiy jihatini o'z ichiga oladi. Ushbu jihat takror ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy samaradorligini aks ettiradi[8].

Inson omili tushunchasi yuqorida keltirilgan tushunchalarga nisbatan ancha kengroq tushunchadir. Bu tushunchaning eng muhim xususiyati shundan iboratki u, nafaqat ishlab chiqarish munosabatlarini harakatga keltiruvchi omil balki o'zining ta'sir etuvchi omil ko'rinishidagi xususiyatlar ya'ni, ehtiyoji, xulq-atvori, tashabbuskorli, tadbirkorligi, qiziqishlari, uzoqni ko'ra bilish xususiyatlari, har qanday vaziyatdan chiqishda to'g'ri qaror qabul qilish xususiyati, fikri, g'oyasi, o'ziga xos noodatiy fikrlash qobiliyati, ixtirochilik qobiliyatlari bilan ijtimoiy hayotimizdagi barcha munosabatlar (tabiat, jamiyat, davlat, korxonalar)ga ta'sir etadi va biz bu omilni "inson omili" deb ataymiz.

Inson kapitali tushunchasi bilan yuqoridagi tushunchalarni o'zaro tahlil qiladigan bo'lsak, masalan inson kapitali tushunchasining negizini ishchi kuchi, jismoniy va aqliy qobiliyatlari tashkil etadi. Ishchi kuchida ham inson kapitali mavjud. Inson kapitali inson resurslarining tarkibiy qismidir. Mamlakatdagi milliy inson kapitalining sifati shu mamlakatning mehnat patensiali belgilab beradi. Inson o'zidagi bilim, tajriba, ko'nikmalari bilan har qanday ijtimoiy munosabatlarga kuchli ta'sir etar ekan demak u umumiy ma'noda eng zo'r inson omilidir desak xato bo'lmaydi. Iqtisodiy qonunlarni tushunish uchun iqtisodiy kategoriyalarni bilish zarur

bo'lganidek, zamonaviy sharoitdagi yangi iqtisodiy munosabatlarni tushunishimiz va moslashishimiz uchun u bilan bog'liq barcha tushunchalarni yaxshi o'zlashtirishimiz lozim. Birgina inson kapitali tushunchasini yaxshi anglashimiz uchun ishchi kuchi, mehnat resurslari, inson resurslari, mehnat potentsiali, inson omili tushunchalarni nazariy tahlil qildik. Tahlildan shu narsa ma'lum bo'ldiki barcha keltirilgan tushunchalarni negizida inson va uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Bugungi kunda nega ishchi kuchi, mehnat resurslari emas balki inson kapitali tushunchasiga ko'proq urg'u berilmoqda. Buning eng muhim sabablaridan biri biz borayotgan hozirgi taraqqiyot yo'li ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ishlab chiqarishning ham bilimlarga asoslanib borishini ko'rsatmoqda. Demak, ishchini bilimi nafaqat uni o'zini yoki oilasini balki mamlakat kerak bo'lsa jahon iqtisodiyoti uchun foyda keltiradi. Keling buni oddiyroq bir amaliy misol bilan tavsiflashga harakat qilamiz.

Dunyodagi eng mashhur kompaniyalardan biri "Apple" kompaniyasining asoschisi Stif Jobsni olib qaraylik. Undagi inson kapitali nafaqat kompaniyani balki davlat, millatni ham dunyoda davrug'ini tanitdi. E'tibor bering birgina insondagi bilim, qobiliyat undagi noodatiy fikrlash uslubi dunyodagi axborot telekommunikasiya sohasida juda katta o'zgarishlarga olib kelgan. Undagi tashqari korxonaning daromadi boshqa sanoat korxonalari bilan raqobatlashadigan darajadan ham yuqoridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "..XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib, raqobat asriga aylanib borayotgan sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investisiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizasiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga quyadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin [12].

Haqiqatdan ham inson kapitali mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini eng muhim mezoniga aylanib bormoqda. Demak, inson kapitali inson daromadlarining o'lchovi ekan. Insonni daromadi undagi bilim, tajriba va ko'nikmalarni darajasiga bog'liq. Insondagi inson kapitali qanchalik sifat jihatdan yuqori bo'lsa uning daromadlari ham shuncha yuqori bo'ladi. Respublikamiz sosiologlaridan prof. N.S.Aliqoriev va A.N.Alikarievalar inson kapitali muammolari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borishgan [13].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eng avvalo, yuqorida keltirilgan tushunchalarning mazmuni va ularning kelib chiqishi bilan bog'liq ayrim sabablarni anglash, ularning evolyusion kelib chiqishini tushunish uchun ularning nazariy jihatlarini bir-biri bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo qiladi.



Ikkinchidan, tadqiqotlar jarayonida shu aniqlandiki, yuqorida keltirilgan iqtisodiy tushunchalarning nazariy talqini, ularning ta'riflari borasida soha olimlarni aniq bir to'xtamga kelishmaganligiga guvoh bo'ldik.

Uchinchidan, bugungi hayotimiz mazkur tushunchalarning har birining xususiyatini ochib berishni ham taqozo qilmoqda. Chunki mehnatning, undan olinadigan samaraga munosabatlarning mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda. Yalpi mehnat tarkibida intellektual mehnatning hissasi oshib bormoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur masalaning ilmiy-nazariy, amaliy va huquqiy jihatlariga oydinlik kiritish quyidagi taklif va tavsiyalarni inobatga olish lozim, deb hisoblaymiz. Birinchidan, "inson kapitali" tushunchasini qonun hujjatlariga kiritish. Buning uchun "Inson kapitali va undan samarali foydalanish yo'llari to'g'risi"da qonunning ishlab chiqilish va uni iqtisodiyotning barcha darajalarida (mikro, mezo, makro) qo'llash yo'llarini ko'rsatib berish lozim. Ikkinchidan, ushbu qonunda mazkur masala bilan bog'liq turli atamalarga (xodimlar soni, ishchilar soni, ishchi kuchi, inson resursi, inson omili, inson salohiyati, mehnat salohiyati, mehnat resursi, inson kapitali kabi tushunchalarga) ilmiy jihatdan asoslangan ta'riflarni berish. Uchinchidan, atamalarning ta'riflarida har birining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish lozim. Chunki ushbu tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishi bilan birga har biri mustaqil tushunchalardir. Ushbu tushunchalarga hozirgi ayrim adabiyotlarda uchrayotganidek, sinonim sifatida qarab bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mikro va makro darajada sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni baholashda qaysi tushunchani qo'llashni davlat, jamiyat, investor, mulkdor, inson, korxonalar kabi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar nuqtai nazaridan qarab tahlil qilish maqsadga muvofiq, chunki shunday yondoshuvgina masalaga ancha oydinlik kiritishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Kolobova A.I. Larionseva A.M «Nekotoryy teorieskiye polojeniya trudovyy resursov i trudovogo potentsiala». Jurnal. Vestnik Altayskogo gosudarstvennogo agrarnogo universiteta №5 (25) 2006.
2. Xaykin M.M. Upravleniye sferoy uslug v razvitii chelovecheskogo kapitala. – SPb.: Izd-vo SPbGUEF, 2010
3. Pardayev M.Q "Bozorli iqtisodiyot sharoitida mehnatga oid tushunchalar" nomli risola. Samarqand. SamKI 1997. 59 b
4. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU. – T.: Iqtisod va moliya, 2014. 226 b
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. Mehnat nashriyoti, 2004 y. 204 b
6. Savenkov I.Ye. Trudovyye resursy predpriyatiya: ponyatiye i suщnost. (maqola)

7. Narziqulov N.R., Muhammedova O.H., Baqoyeva I.A. Inson resurslari iqtisodiyoti . – (O‘quv qullanma) - T.:TDIU, 2004. 7 bet
8. Bakiyeva I.A. «Inson resurslari iqtisodiyoti» fani (O‘quv qo‘llanma) – TDIU, 2011. -17 bet
9. Schultz T.P. Economic Research: Retrospect and Prospect, Volume 6, Human Resources 1972.
10. Bekker G.S. Chelovecheskoye povedeniye: ekonomicheskiy podxod. Izbrannyye trudy po ekonomicheskoy teorii: Per. s angl. / Sost., nauch. red., poslesl. R.I. Kapelyushnikov; predisl. M.I. Levin. — M.: GU VSHE, 2003, —90, 96 s
11. Teoriya chelovecheskogokapitala. [http://ww/libertarium/10624/lib\\_article\\_t](http://ww/libertarium/10624/lib_article_t)
12. Karimov I.A. 2012 yil 18 fevralda “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. // Xalq so‘zi, 2012 yil 18 fevral.
13. Аликариев Н.С. Comprehensive analysis of productivity improvements/“Социология фанлари” ([www.tadqiqot.uz\soci](http://www.tadqiqot.uz\soci)) электрон журналы. №3. 5-жилд. – Тошкент, 2022. – Б. 21-31. DOI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6717922>; Аликариева А.Н. Социальные факторы повышения качества подготовки кадров высшей квалификации//Социология фанлари” ([www.tadqiqot.uz\soci](http://www.tadqiqot.uz\soci)) электрон журналы. 4 жилд, 1 сон. – Тошкент, 2021. – Б. 35-47. №1 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2021-1>.
14. 13. Bahodir o‘g‘li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – С. 521-523.